



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 йил 25-апрель, № 84 (8979)

Juma


Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON — TURKMANISTON:

O'ZARO DO'STLIK VA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LIDAGI QAT'IY INTILISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 23-24-aprel kunlari tashrif bilan Samarqand shahrida bo'ldi.



Tashrif doirasidagi asosiy tadbirlar 24-aprel kuni bo'lib o'tdi. "Buyuk Ipak yo'li" majmuasi Kongress markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov tor doirada va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

Uchrashuv avvalida Turkmaniston yetakchisi davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ko'p qirrali hamkorlik barcha yo'nalishda, shu jumladan, siyosiy, parlamentlararo,

savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalarida jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniat bilan qayd etildi.

Barcha darajada samarali muloqot olib borilmoqda. Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari, Ishbilarmonlar kengashi, Hududlar forumi, madaniyat kunlari, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. O'tgan yili o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1,1 milliard dollarni tashkil etdi. Poytaxtlarda savdo uylari ochilib, yuk tashish hajmi oshmoqda. Yaqin yillarda tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida o'zaro manfaatli kooperatsiya rivojlanmoqda. Mangalida "Shovot — Toshovuz" chegaraldi savdo zonasi tashkil etilmoqda.

Faol hududlararo muloqotlar yo'lga qo'yilgan, madaniy-gumanitar almashinuv bo'yicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilda Xiva shahrida uchinchi Hududlar forumini hamda O'zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlarini o'tkazishga kelishib olindi.

O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy sheriklikka doir masalalar, shu jumladan, "Markaziy Osiyo plus" formatidagi bo'lajak sammitlar va Toshkent shahrida o'tkaziladigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan fikr almashdilar.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan e'lon qilingan "Xalqaro tinçlik va ishonç yili" doirasida joriy yil dekabr oyida Ashxobod shahrida o'tkaziladigan

forum va boshqa xalqaro tadbirlar muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Turkman xalqining milliy yetakchisiga uning qalamiga mansub "Tafakkur gavhari" kitobining o'zbek tilidagi nusxasini topshirdi.

Ikki tomonlama muzokaralar yakunida Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga O'zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti — "Oliy Darajali Do'stlik" ordenini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari mukofotni topshirar ekan, Gurbanguli Berdimuhamedovning qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi an'anaviy do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashdagi ulkan xizmatlarini e'tirof etdi.

— Qardosh Turkmanistonning barcha ulkan yutuqlari, keng ko'lami yangilanishlari va xalqaro maydondagi nufuzi yuksalishi Sizning nomingiz bilan chambarchas bog'liq, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Turkmanistonda iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda, aholi farovonligi izchil yuksalmoqda.

Prezidentimiz Turkman xalqining milliy yetakchisi tomonidan ilgari surilayotgan global xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lidagi xalqaro tashabbuslarni alohida qayd etdi. Gurbanguli Berdimuhamedovning shaxsiy sa'y-harakatlari tufayli O'zbekiston — Turkmaniston munosabatlari bugungi kunda yuksak darajaga chiqqani, haqiqatan namunaviy tus olgani ta'kidlandi.

— Shaxsan Sizning ko'magingiz bilan 2017-yilda davlatlarimiz strategik sherikligini mustahkam asosi yaratildi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatlarimiz parlamentlari, hukumatlari, hududlari, ishbiarmonlari, jamoatchiligi, ziyolilari va yoshlari o'rtasida faol muloqotlar, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniat bilan qayd etildi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik yuksak e'tirofga loyiq. Masalan, o'tgan yili Ashxobod va Toshkentda Maxtumquli asarlarining o'zbek tilidagi uning qalamiga mansub "Tafakkur gavhari" kitobining o'zbek — turkman badiiy filmining premyerasi bo'lib o'tdi.

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ko'rsatilgan yuksak hurmat va ehtirom uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev va o'zbek xalqiga minnatdorlik izhor etdi. Azaldan qardosh bo'lib, yaqin qo'shniçilik an'analari asosida yashab kelayotgan o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik bundan buyon ham mustahkamlanishi, bu ezgu ishga hissa qo'shish u uchun sharaf ekanligini ta'kidladi.

Marosimda so'zga chiqqanlar Gurbanguli Berdimuhamedovga O'zbekiston Respublikasining oliy mukofoti topshirilishi ko'p millatli xalqimizning atoqli davlat arbobi, bugungi Turkmanistonning milliy yetakchisi va me'mori sifatida unga nisbatan samimiy hurmat-ehtiromi ifodasi bo'lganini ta'kidladilar.

Rasmiy tadbirlar yakunlangach, Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov Kongress markazining Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda eman daraxtini ekdilar.

Marosim ikki qardosh xalq o'rtasidagi ko'p asrlik mustahkam do'stlik va yaxshi qo'shniçilik rishtalari, O'zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish borasidagi qat'iy intilishning ramzi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan birga Samarqanddagi Xalqaro turizm markazida tashkil etilgan "Zamonlar sadosi" ko'rgazmasiga tashrif buyurdilar.

Mehmonlarga ko'rgazmaning asosiy qismi — tungi sahro manzarasi namoyish etildi. Yulduzli osmondan burjlar, Mirzo Ulug'bek xaritasi va meridianlar namoyon bo'ldi. Tomoshabin xuddi Buyuk Ipak yo'li bo'yab harakatlanayotgan karvon kabi

qum tepaliklar orasidan o'tadi. Yo'l bo'yab insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi yoritib boriladi.

Yo'lda turkman o'tovi uchraydi. Turkman baxshining qo'shig'i yangraydi. O'zbek va turkman ayollari, biri so'zana tiksa, ikkinchisi turkman gilamini to'qiydi.

Ustalar va bunyodkorlar shahrida rassomlar, hunarmandlarning nozik did va yuksak mahorat bilan yaratilgan ijodiy asarlari namoyon bo'ldi.

O'zbek va turkman san'atkorlari ijrosida dutor va tanbur chalindi, buyuk shoirlar Alisher Navoiy va Maxtumquli g'azallari o'qildi.

Innovatsion taqdimotda maxsus jilolar va teatrlashtirilgan sahnalar keng qo'llanilgan mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Aytish mumkinki, mazkur ko'rgazma — birodarlik tarixi, o'tmishdan dars olib, kelajakni hamkorlikda qurish sari chiqiriq. Xalqlarni yaqinlashtirish uchun ko'proq ko'priklar kerak bo'lgan bir paytda, ana shunday ekspozitsiya orqali qo'shniçilikni mamlakatga "bizni faqat tarix emas, balki umumiy kelajak birlashtiradi" deya olish — yuqori diplomatiya namunasidir.

Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning yurtimizga amalga oshirgan tashrif yakunlandi. Oliy martabali mehmonni Samarqand xalqaro aeroportida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kuzatib qo'yd.

Hech shubhasiz, Turkman xalqi milliy yetakchisining mamlakatimizga tashrif va davlatimiz rahbari bilan o'tkazgan samarali muzokaralari O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishga hamda azaliy qardosh o'zbek va turkman xalqlarining do'stona aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
G'olib HASANOV,
O'ZA maxsus muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

BARQARORLIK VA TARAQQIYOTGA QARATILGAN MUHIM DIPLOMATIK QADAMLAR

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish, ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik va parlamentlararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tashrif

Shu yilning 23-aprel, kuni O'zbekiston Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Turkiya Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush taklifiga binoan ushbu mamlakatga tashrif buyurdi.

Muloqotlar davomida parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, ikki tomonlama munosabatlarning barcha yo'nalishidagi hamkorlikni mustahkamlash, jumladan, ijtimoiy himoya, ta'lim, xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik sohalaridagi o'zaro aloqalarni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilinadi.

Tashrif doirasida amalga oshirilgan ilk tadbirlardan biri — mamlakatimiz Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila

Norboyevaning Turkiya Respublikasining birinchi Prezidenti Mustafa Kamol Otaturk xoki qo'yilgan Anitkabir yodgorlik majmuasiga ziyorati bo'ldi.

Turkiya Respublikasining asoschisi Mustafa Kamol Otaturk o'z Vataniining milliy istiqloli uchun kurashgan tarixiy shaxs sifatida qadrlanadi.

Anitkabir yodgorlik majmuasi Mustafa Kamol Otaturkning davlat va xalq oldidagi xizmatlariga hurmat ifodasi sifatida bunyod etilgan. 750 kvadrat metr maydonni egallagan majmua maqbara, muzey, bog' va boshqa obyektlarni o'z ichiga olgan.

Tanzila Norboyeva Turkiyaning buyuk davlat va siyosat arbobi Mustafa Kamol Otaturk qabriga gul qo'yib, uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdi hamda Faxriy mehmonlar kitobida quyidagi

so'zlarni yozib qoldirdi: "Turkiya Respublikasining asoschisi va ilk Prezidenti hamda Turkiya Buyuk millat majlisining birinchi Raisi Mustafa Kamol Otaturkni ziyorat qilib, u kishining porloq xotirasini yodga olish biz uchun ulkan sharaf va iftixor bag'ishlaydi. Qardosh turk xalqining bugungi zamonaviy va farovon kunlarga erishishida ushbu ulug' davlat arbobi boshlagan ulkan islohotlarning o'rnini beqiyosdir. Mustafa Kamol Otaturk o'z faoliyati davomida bizning mamlakatimizdan, jumladan, Buxorodan kelgan delegatsiyalarga yuksak mehmon do'stlik ko'rsatganini doimo chuqur minnatdorlik bilan eslaymiz va qadrlaymiz. Turk millatining ardoqli farzandi, Turkiya Respublikasining asoschisi, ulug' qo'mondon Mustafa Kamol Otaturk xotirasini oldida chuqur ta'zim qilamiz".

Shundan so'ng O'zbekiston Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Turkiya Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush bilan uchrashdi.

MINTAQAVIY TINCHLIK VA XAVFSIZLIK ARXITEKTURASINI YARATISHGA QO'SHILGAN HISSA

23-24-aprel kunlari Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.

Xalqaro tahlil va ekspert doiralari vakillari Turkman xalqi milliy yetakchisining Samarqandga tashrifini hamda ikki qo'shniçilik davlat va qardosh o'zbek — turkman xalqlari o'rtasidagi tarixiy rishtalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan samimiy muloqotni yuksak baholamoqda.

Dunyo nigohi

Yan CHEN,
Shanxay xorijiy tillar universitetining
Shanxay global boshqaruv va hududiy
tadqiqotlar akademiyasi direktori,
professor:

— Hozirgi bosqichda O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ikki davlat rahbarlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan

ochiq va ishonçli muloqot ko'p qirrali O'zbekiston — Turkmaniston strategik sherikligini mustahkamlashning asosidir. Ikki qardosh xalq o'rtasidagi munosabatlarning bugungi darajasiga Prezident Shavkat Mirziyoyev va Milliy yetakchi Gurbanguli Berdimuhamedovning kuchli siyosiy irodasi hamda birgalikdagi sa'y-harakatlari mustahkam poydevor yaratdi. Ularning hamkorligi ikki davlat kun tartibidagi ko'plab fundamental masalalarni hal etishda asosiy omil bo'lmoqda.

Deputatlar — hududlarda

AHOLI MANFAATLARINI TA'MINLASHDA BURCH VA MAS'ULIYAT

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan muloqot qilish, aholi muammolarini o'rganish, ularga ijobiy yechim topish, tibbiyot muassasalari faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida hududlarda bo'lib, barcha sohada olib borilayotgan ishlar bilan tanishmoqda. Xalq vakillari mahallalar, ishlab chiqarish korxonalarida keng jamoatchilik vakillari, yoshlar bilan uchrashmoqda, quyilgan qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyati haqida batafsil ma'lumotlar beryapti. Hududlarda kambag'allikni qisqartirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, investitsiyaviy loyihalar, yangi uy-joylar qurilishi, agrar sohada mavsumiy ishlarning borishi kabi bir qator muhim masalalar ham deputatlar e'tiborida bo'lmoqda.

HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror, o'zaro ishonç va do'stlikka asoslangan yangi siyosiy muhit shakllandi. Bu jarayonda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi do'stona munosabatlar alohida o'rin tutadi.

Munosabat

Turkman xalqi milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning 23-24-aprel kunlari Samarqand shahriga amalga oshirgan tashrif doirasida muhokama etilgan siyosiy, iqtisodiy, parlamentlararo, transport-kommunikatsiya, energetika va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik masalalari mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Ijtimoiy faol, tadbirkor xotin-qizlar qo'llab-quvvatlanadi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Adolat" SDP fraksiyasi rahbari Robaxon Mahmudovanning "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qon quyish markazida partiyaning hududiy kengashi mas'ullari, shifokor va hamshiralar bilan o'tkazgan davra suhbatida sohada korrupsiya xavfini kamaytirish bo'yicha aynan soha vakillari ishtirokida fikr almashishga yo'naltirilgani bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

BARQARORLIK VA TARAQQIYOTGA QARATILGAN MUHIM DIPLOMATIK QADAMLAR

➡ Suhbat chog'ida ikki davlat rahbarlarining mustahkam siyosiy irodasi va do'stona munosabatlari tufayli O'zbekiston – Turkiya aloqalari har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani ta'kidlandi.

Parlamentlar davlatlararo hamkorlikni chuqurlashtirishda tobora faol ishtirok etayotgani aytiladi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazorati muhimligi, shuningdek, tegishli qo'mitalar va do'stlik guruhlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Madaniy-gumanitar aloqalar, ayniqsa, ta'lim va turizm sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish, yoshlar va hududlararo tajriba almashish muhimligi ta'kidlandi. Turkiy tili mamlakatlar parlamentlari va

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi aloqalarni chuqurlashtirish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan Turkiya Buyuk millat majlisi o'rtasida hamkorlik Baynonomasi imzolandi.

Ushbu hujjat O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. U orqali ikki mamlakat qonunchilik organlari o'zaro tajriba almashadi, qonunchilik jarayonida yaqin hamkorlikni amalga oshiradi va bu bilan umumiy manfaatlariga xizmat qiluvchi sohalar – siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, yoshlar hamda

sport yo'nalishlarida yanada faol va tizimli sheriklik yo'lga qo'yiladi. Bu nafaqat ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash, balki butun mintaqada barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim diplomatik qadamdir.

*** Shu kunning o'zida delegatsiya a'zolari O'zbekiston tarixi, madaniyati va zamonaviy taraqqiyotiga bag'ishlangan kitoblar hamda nashrlar taqdim etilgan parlament kutubxonasi faoliyati bilan ham tanishdilar.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Turkiya Buyuk millat majlisi Faxriy mehmonlar kitobida yozuv qoldirib, ikki tomonlama parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash muhimligini ta'kidladi.

*** Kecha Anqara shahrida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Turkiya Respublikasi oila va ijtimoiy xizmatlar vaziri Mahinur Ozdemir Gyoktash bilan ham uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi qardoshlik hamda strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Ta'kidlanganidek, ikki mamlakat rahbarlari o'rtasidagi do'stona munosabatlarga keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirishga mustahkam zamin yaratgani e'tiborga molik.

Tomonlar ijtimoiy himoya, oila instituti hamda ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlash yo'nalishlaridagi amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qildi.

Shuningdek, ijtimoiy xizmat xodimlari malakasini oshirish, quyi bo'g'ingacha ushbu tizimni sifatli joriy etish, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yo'nalishlarida tajriba almashish yuzasidan fikr almashildi.

Bugungi kunda davlatlarimiz o'rtasida hududlararo hamkorlik yo'lga qo'yilganini inobatga olib oila, xotin-qizlar va ijtimoiy xizmat sohalarining hududiy bo'limlari bilan faol muloqotni yo'lga qo'yish haqida fikrlashildi.

Shu bilan birga, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston va Turkiya tadbirkor ayollarining biznes forumlarini o'tkazishga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



MUALLIFLIK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING QONUNY ASOSLARI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi tomonidan “Mualliflik huquqiga oid qonunchilikni takomillashtirish va himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirish” mavzuida seminar o'tkazildi.

Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va idoralarning mutasaddilari, tadqiqotchi olimlar, professor-o'qituvchilar, nashriyot vakillari, Yoshlar parlamenti a'zolari hamda jurnalistlar ishtirok etdi. Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mualliflik huquqini muhofaza qilish, milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, moddiy va nomoddiy madaniy meros dardonalari saqlash, targ'ib etish, madaniyat hamda san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 53-moddasida “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi”, deb belgilangan.

Prezidentimizning “Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni bilan San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasi tashkil etildi. Bugungi kunda palata fan, adabiyot, san'at va madaniyat sohasidagi muallif, san'atkor, ijodkor va ijrochilar (huquq egalari) hamda ularning huquqiy vorislari mulkiy huquqlarini himoya qilish, ularning huquq va manfaatlarini respublika hamda undan tashqari do'ryobga chiqarilishini ta'minlashga ko'maklashib kelmoqda.

Tadbirida sohada amalga oshirilayotgan ishlar e'tirof etilib, mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishi yo'lidagi sa'y-harakatlar amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini kuchaytirishni talab qilayotgani alohida qayd etildi.

Shuningdek, mualliflarning badiiy ijod erkinligini ta'minlash, ularning ijod qilishlari uchun munosib huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari yaratish, mualliflik huquqlariga oid bilimlarni tarqatish, joylarda asarlar va ijrochilardan foydalanishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish bo'yicha bir qator takliflar ilgari surildi. Bundan tashqari, kelgusida ta'lim muassasalarida sohaga oid fanlarni o'qitish, keng jamoatchilik orasida mualliflik huquqini himoya qilishga oid bilim va qarashlarni yanada rivojlantirishga oid fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbirida sohaga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish, mualliflik huquqini himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Xalq so'zi”.

HAMKORLIKNI YANGI BOSQICH

➡ Shuni ta'kidlash kerakki, ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 1,1 milliard dollardan oshgani, “Shovot – Toshvovz” chegarada savdo zonasining tashkil etilayotgani, temir yo'l va avtomobil yo'li orqali transport logistikasining rivojlanayotgani biz kutgan istiqbolli hamkorlikni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Madaniy-gumanitar hamkorligimiz ham tahsinga loyiq. Masalan, o'tgan yili poytaxtlar – Toshkent va Ashxobodda Maxtumquli asarlarining o'zbek tilidagi to'plami taqdimot qilindi, shuningdek, Ashxobod xalqaro kinofestivalida o'zbek – turkman badiiy filmining premyerasi bo'lib o'tdi.

Ikki tomonlama muzokaralar yakunida Turkman xalqining

milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga O'zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti – “Oliy Darajali Do'stlik” ordenining topshirilishi mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlarning yuksak darajasini ifodalaydi.

Bu mukofot nafaqat Turkman xalqi milliy yetakchisining O'zbekiston bilan strategik sheriklikni mustahkamlashdagi xizmatlarini e'tirof etadi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik hamda taraqqiyotga qaratilgan sa'y-harakatlarning yuksak qadrlanishidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Turkmanistonning xalqaro

maydondagi yuksalishi va barqaror iqtisodiy taraqqiyoti bugungi kunda Gurbanguli Berdimuhamedov nomi bilan chambarchas bog'liq. Turkmaniston tomonidan ilgari surilgan “2025-yil – Xalqaro tinchlik va ishonch yili” tashabbusi dunyo hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgani buning yorqin dalilidir.

Ishonchimiz komilki, ushbu tashrif O'zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shavkat AYUPOV,
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

QIZAMIQDAN XOLI HUDUD UCHUN

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi tomonidan “Xalqaro emlash” haftaligi doirasida qizamiq kasalligining oshishi sabablari va uning oldini olish choralari haqida bahs o'tkazildi.

Davra suhbat

Unda senatorlar, soha mutaxassislari, xalqaro tashkilotlar ekspertlari, vazirlik, idoralarda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining xabariga ko'ra 2024-yilda Yevropa mintaqasida qizamiq bilan kasallanishga oid 127 mingdan ortiq holatlar aniqlangan, mazkur ko'rsatkich 2023-yildagiga nisbatan ikki barobar ko'p bo'lib, bu 1997-yildan beri qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkichdir.

Ta'kidlanganidek, O'zbekistonda qizamiqqa qarshi emlash Milliy emlash kalendari asosida amalga oshiriladi va 2024-yilda emlangan bolalar qamrovi 99,3 foizni tashkil qilgan. Shunga qaramay respublikaning ayrim hududlarida qizamiq bilan kasallanish holatlari qayd etilgan aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mutaxassislar aytishicha, qizamiq kasalligining oldini olishda bolalarni vaqtida va to'liq emlash eng samarali chora hisoblanadi. Jumladan, qizamiq, qizilcha va tepkiga qarshi bola birinchi mara 12 – 15 oyigida, ikkinchi mara bolalar bog'chasiga borishdan oldin, ya'ni 4 – 6 yoshda emlanishi lozimligi ta'kidlandi.

Tadbirida qatnashgan sog'liqni saqlash sohasi mutasaddilari va mahalliy ekspertlar davlat qizamiq kasalligiga qarshi vaktsina bilan uluksiz ta'minlayotgani va uni davolash jarayonlari zamonaviy usullar orqali amalga oshirilayotgani e'tirof etildi.

Davra suhbat yakunida senatorlar va mutaxassislar tomonidan qizamiqning tarqalishiga barham berish hamda O'zbekiston qizamiqdan xoli hudud bo'lishi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Xalq so'zi”.

Senat qo'mitasida



➡ Avvalroq Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi ishchi guruhi a'zolari Namangan va Toshkent viloyatlarida bo'lib, mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish va sport maydonchalaridan samarali foydalanishni tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganiganini xabar qilgan edik.

MAHALLADA STADION BO'LMASA...

Kecha Senatning ayni qo'mitasida ushbu o'rganishlar natijasi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda senatorlar, vazirlik va idoralarda mas'ullari, Yoshlar parlamenti hamda xalq deputatlari Namangan va Toshkent viloyatlari Kengashlari a'zolari, sport tashkilotlari rahbarlari, ekspertlar ishtirok etdi.

Majlisda O'zbekiston sport vaziri o'rindoshining kun tartibidagi masala yuzasidan axboroti eshittildi.

Ta'kidlanganidek, Sport vazirligi mablag'lari hisobidan 2024-yilda Namangan viloyatida 22 ta, Toshkent viloyatida 42 ta universal, stritbol-vorkaut va vorkaut sport maydonchalari qurib foydalanishga topshirilgan.

Namangan viloyatida o'tgan yilda 10 366 ta ommaviy sport tadbiri o'tkazilib, ularga 1 mln. 90 ming kishi (33,6 foiz) qamrab olingan. Toshkent viloyatida 7 451 ta sport tadbiri tashkil etilgan bo'lib, ularda 1 mln. 7 200 dan ziyod kishilar qatnashdi.

Namangan tajribasi sifatida har bir tuman va shaharda 5 tadan (70 ta) Ayollar sport salomatlik markazlari ochilib, ularga 2 634 nafar ayol jalb etildi.

Mahallalarda sport inshootlarini qurishda aholi istaklarini inobatga olish uchun “tashabbus sport.uz” platformasi ishlab chiqilib, ovoz berish orqali sport obyektlarini aniqlash tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'rganishlar davomida har ikkala viloyatda amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda ayrim kamchilik va muammolar ham aniqlangan aytiladi. Xususan, Namangan viloyatida 83 ta, Toshkent viloyatida 359 ta mahallada sport maydonchalari mavjud emas.

Aksariyat universal sport, stritbol-vorkaut hamda vorkaut sport maydonchalari moddiy-texnika bazasi eskirganligi oqibatida ulardan to'liq va samarali foydalanishning imkonlari yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-iyuldagi tegishli qarorida mahallalarda barpo etilgan sport maydonchalari tozaligini saqlash, atrofini obodonlashtirish ishlarini bajarish uchun bitta shtat birligi ajratish belgilangan bo'lsa-da, ushbu shtat birligi ajratilmagan. Buning oqibatida ayrim sport maydonchalari qarovsiz qolib, ularda tozalikka va xavfsizlikka yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Sport maydonchalaridan samarali va maqsadli foydalanishni tashkil etishda mahallalardagi yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlarining hamkorligi yo'lga qo'yilmagan.

Namangan viloyatidagi 114 ta, Toshkent viloyatidagi 174 ta umumta'lim maktablarida o'quvchilarning sport bilan shug'ullanishi hamda jismoniy tarbiya darsini o'tish uchun sport zallari mavjud emas.

O'rganishlarda maktablarda to'garaklar faoliyati to'liq yo'lga qo'yilmagani, mashg'ulotlar jadvallari tasdiqlanmagani, maktab o'quvchilari hamda mahalla yoshlarining to'garaklardagi ishtiroki bo'yicha jurnallar yuritilmagani aniqlangan qayd etildi.

Shuningdek, mahallalardagi sport maydonchalari nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirilgan hamda parasport turi bilan shug'ullanish uchun yetarlicha shart-sharoit yaratilmagan. Bundan tashqari, Namangan viloyatida 336 ta, Toshkent viloyatida 697 ta (respublika bo'yicha 3 378 ta) mahallada futbol maydonining mavjud emasligi mamlakatimizda jamoaviy sport turini mahalladan rivojlantirib borishga to'sqinlik qilmoqda.

Majlis yakunida Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan qarori qabul qilindi.

“Xalq so'zi”.

AHOLI MANFAATLARINI TA'MINLASHDA BURCH VA MAS'ULIYAT

➡ Fraksiya rahbari markazdagi shart-sharoitlar, qon yig'ilish va saqlash jarayonlari, donorlik madaniyatini ommalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Soha xodimlarining fidokorona mehnati va mas'uliyati yuqori baholalanib, ularning taklif va tashabbuslari qo'llab-quvvatlash doimiy e'tibordagi ekanlari ta'kidlandi.

Shundan so'ng u Nukus shahrida joylashgan “Bozavil” mahalla servis kompaniyasi faoliyati bilan tanishdi hamda bu yerda mehnat qilayotgan tadbirkor ayollar bilan uchrashdi. Mahalladagi xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati, ish bilan bandligi, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalalarida suhbatlashdi.

Tikuvchi xotin-qizlar bilan suhbat chog'ida hudud ayollarining tashabbuskorligi va mehnatsevarligi e'tirof etilib, partiya ijtimoiy faol, tadbirkor xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanlari ta'kidlandi. Ishchi guruh a'zolari mahallaning Bog'li el ko'chasida yashovchi, 70 yoshni qarshilagan Qutlibike aya Saparbaveva xonadonida bo'ldi.

Qutlibike aya mehmonlarga hovlida barpo etilgan issiqxonada parvarish qilinayotgan ko'kat hamda qo'ziqorinlar nafaqat xonadon ehtiyojini ta'minlash,

balki mahalladagi boshqa oilalar uchun ham manfaat keltirayotganini so'zlab berdi. Nuroniy onaxon bu ishga qizlari va qo'shni ayollarni ham jalb qilgani, mehnat orqali nafaqat daromad, balki hamjihatlik va ma'naviy qanoat yuksalayotganini alohida qayd etib o'tdi.

Uchrashuv davomida faollar bilan mahallada kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi tomorqasidan unumli foydalanishni tashkil etish, issiqxona qurish, dehqonchilikni zamonaviy tajribalar asosida rivojlantirish va bu orqali uy sharoitida ish o'rnlari yaratish bo'yicha takliflar ham muhokama qilindi.

Fraksiya rahbarining Nukus shahridagi yirik sanoat korxonalaridan biri – “Nukuselektroapparat” mas'uliyati cheklangan jamiyatida ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishuvi ham samarali bo'ldi.

Qayd etish joizki, ushbu korxonada mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, muhandislik salohiyatini yuksaltirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish borasida muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. U, asosan, quyosh panellarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan bo'lib, yurtimizda muqobil energiya sohasini kengaytirishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

O'rganish doirasida korxonada mehnat qilayotgan xodimlar, xususan, xotin-qizlar uchun yaratilgan sharoitlar, mehnat muhofazasi, ijtimoiy kafolatlar va ish muhiti o'rganildi.

Qishloq xo'jaligi ravaqiga innovatsion yondashuv

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari Abdushukur Hamzayev boshchiligidagi ishchi guruh Navoiy viloyatida bo'lib, ekologiya sohasidagi islohotlar va “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishmoqda.

Karmana tumanining Sardoba mahallasida bajarilgan ishlar e'tiborga molik. Mazkur hududda 90 gektar maydonga 100 ming tup iqlimga mos manzarali daraxt ko'chati ekilgan.

Deputatlar mahallada amalga oshirilayotgan ishlarni qo'llab-quvvatlagan holda, yashil hududlarni ko'paytirish va ekologik vaziyatni yaxshilash bugungi kunning muhim masalalaridan biri ekanini, buning uchun mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish zarurligini ta'kidlashdi.

Aytilish joizki, ishchi guruh viloyatda “Quy bo'g'ida suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv

resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarori ijrosi yuzasidan ham o'rganishlar olib bormoqda.

Shu maqsadda Qiziltepa tumanidagi ilg'or tajriba maydonlaridan biri – “Zarafshon tola” fermer xo'jaligida amalga oshirilayotgan innovatsion qishloq xo'jaligi loyihasi bilan tanishildi.

Loyihaning ahamiyatli tomoni shundaki, bu yerda Avstriyadan olib kelingan yomg'irliatib sug'orish texnologiyasi asosida tejamkor usulda sug'orish ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu usul bilan 60 gektar maydonga ekilgan arpa tajriba tarqasida o'stirilmog'da. Ushbu maydonda ayni paytda 402 metrik 4 ta yomg'irliatib sug'orish qurilmasi ishlatilmoqda.

Fraksiya rahbari suv resurslari kamayib borayotgan bir sharoitda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali hosildorlikni oshirish va tuproq unumdorligini saqlash juda muhim ekanini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, tumandagi “Uch avlod bog'i”da olib borilayotgan ishlar ham o'rganildi. Ushbu bog'ni tashkil etish uchun 200 gektar yer maydoni o'zlashtirilgan bo'lib, iqlim sharoitiga mos 220 ming tup gujum ko'chati ekilgan. Tomchilatib sug'orish tizimi ham joriy etilgan.

Deputatlar ko'chatlarni parvarishlash va yozning jazirasidan saqlab qolish bo'yicha zarur tavsiyalar berdi.

Xususiy dorixonalardagi narxlar tahlil qilindi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Nodira Jonibekova Sirdaryo viloyatida saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda.

Dastavval Sirdaryo tumani tibbiyot birlashmasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” doirasida o'tgan targ'ibot tadbirida ishtirok etgan deputat so'zga chiqib, tibbiyot sohasidagi korrupsion holatlar, ularning kelib chiqish sabab va oqibatlarini, shuningdek, yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar haqida ma'lumot berdi.

Tadbir doirasida deputat dori-darmon ta'minoti va uning narx-navo sohasida korrupsion holatlarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini ham o'rgandi. Sirdaryo tumanidagi xususiy dorixonalardan birida ayrim dori vositalari narxi tahlil qilinib, ortiqcha ustama narx qo'yilmasligi yuzasidan tavsiyalar berildi.

Deputat boshchiligidagi ishchi guruh Sirdaryo tumani tibbiyot birlashmasidagi tez tibbiy yordam,

bolalar va reanimatsiya bo'limlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati bilan tanishdi. Shifoxonaning qabulxonalari, laboratoriyalar, diagnostika markazlari va shoshilinch tibbiy yordam bo'limidagi sharoitlar o'rganildi, shifokorlar va bemorlar bilan muloqot o'tkazilib, taklif va muammolar tinglandi.

Ishchi guruh Tinchlik mahallasida ham bo'lib, “mahalla yetilligi” a'zolari bilan aholining bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, xotin-qizlarni kasb-hunarga o'rgatish, tomorqadan unumli foydalanish kabi ustuvor vazifalar yuzasidan suhbatlashdi.

Ijtimoiy yordam va subsidiyalari ajratishda “mahalla yetilligi” kollegial qarorlarining ahamiyati qayd etildi. Shuningdek, tuzilma faoliyatini yanada samarali tashkil qilishga qaratilgan takliflar o'rgandi.

Deputat “Xazina” mahalla fuqarolar yig'inida ham mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi bandligi va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish borasidagi ishlar bilan yaqindan tanishdi. Muloqot davomida “mahalla yetilligi” faoliyati, aholining taklif va tashabbuslari eshittildi hamda deputat tomonidan samarali ish yuritish bo'yicha tavsiyalar berildi.

“Xalq so'zi”.

Toshkentda “O'zbekistonda davlat xaridlari tizimidagi imkoniyatlar va islohotlar” forumi bo'lib o'tmoqda.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI MAXSUS XIZMATLARI RAHBARLARINING BIRINCHI UCHRASHUVI BO'LIB O'TDI

Poytaxtimizda Markaziy Osiyo davlatlari maxsus xizmatlari rahbarlarining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining VII Maslahat uchrashuvidagi raisligi doirasida tashkil etildi.
Tadbir ochilishida ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning murojaati o'qib eshittirildi. Unda Markaziy Osiyo davlatlari maxsus xizmatlari muloqoti mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shma yondashuvlar va ta'sirchan mexanizmlarni ishlab chiqishga xizmat qilishi qayd etildi. Uchrashuv davomida asosiy e'tibor mintaqamamlakatlari xavfsizligiga zamonaviy tahdidlar va xatarlarga baho berishning yaqin yondashuvlarini ishlab chiqish, shuningdek, ularni bartaraf etishda maxsus xizmatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik samaradorligini oshirish masalalariga qaratildi.

Tomonlar mintaqaviy xavfsizlik, terrorizm, ekstremizm, noqonuniy narkotik va qurol-yarog' aylanmasiga qarshi kurashish, transmilliy jinoyatchilik, axborot va kibernetika xavfsizligini ta'minlash sohalaridagi dolzarb masalalarni hamda o'zaro manfaatli boshqa hamkorlik yo'nalishlarini muhokama qildilar.
Ushbu tadbir Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim bosqich bo'lib, mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida maxsus xizmatlar rahbarlarining muntazam uchrashuvlariga asos soldi.

O'zA.

MINTAQAVIY TINCHLIK VA XAVFSIZLIK ARHITEKTURASINI YARATISHGA QO'SHILGAN HISSA

Oliy darajadagi o'zaro aloqalar mamlakatlarning konstruktiv siyosiy muloqotini yanada mustahkamlash va o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga intilishining yorqin dalilidir.
Xitoy O'zbekiston va Turkmanistonning chegaradosh viloyatlari o'rtasida intensiv hamkorlikni qayd etishi, transport sohasida maqsadli loyihalar amalga oshirilayotganini muhim ahamiyatga ega. Ikki davlatning integratsiyalashgan avtomobil va temir yo'llari uchinchi mamlakatlar uchun tranzit vazifasini bajaryapti, shuningdek, sohadagi yirik loyihalar ijrosida o'zaro hamkorlik kuchaymoqda.
Rasmiy Toshkent va Ashxobod Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ikki davlat o'rtasida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish yo'nalishlarida uzoq muddatli konstruktiv hamkorlik izchil rivojlanyapti.

Zafar Navoz JASPAL, Pokistondagi Qaid-i Azam universitetining siyosat va xalqaro munosabatlar fakulteti dekani, professor:
Turkman xalqi milliy yetakchisining O'zbekistonga ba galgi tashrifi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamdir.
Shu ma'noda, Pokiston jamoatchiligi O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar yanada yaqinlashishini katta qiziqish bilan kuzatadi.
Avvalo, rasmiy Toshkent va Ashxobod o'rtasidagi strategik muloqot darajasi hayratlanarlidir. Oliy darajada o'tgan muzokaralar tomonlarning nafaqat munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan siyosiy irodasi, balki chegaradoli savdosini rivojlantirishdan tortib, madaniy almashinuvga bog'lan amaliy yo'nalishini ham namoyon etdi. Pokiston bu tashabbuslarni Markaziy Osiyoda barqaror tinchlik va iqtisodiy o'sishning muhim elementlari sifatida baholaydi, bu esa o'z navbatida, Janubiy Osiyo davlatlari bilan siyosiy muloqotlarda o'z aksini topadi.
Pokistonlik ekspertlarning fikricha, mintaqadagi ana shunday tashabbuslar uchun namuna bo'lishi mumkin sanalgan "Shovot - Toshhovuz" chegara savdo zonasini yaratish bo'yicha hamkorlikdagi ishlar alohida qiziqish uyg'otadi. Pokiston mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konsepsiyasini ilgari suruvchi davlat sifatida transchegaraviy o'zaro hamkorlikning bunday shakllarini to'liq qo'llab-quvvatlaydi.
Shuningdek, transport va logistika sohasidagi sheriklik muhimligini ta'kidlash lozim. Turkmaniston va O'zbekiston transkontinental yo'nalishlar, jumladan, Janubiy Osiyoga olib boruvchi yo'laklarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ikki mamlakat o'rtasida yuk tashish hajmini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish Pokiston portlari, jumladan, Karachi va Gvadar bilan integratsiya istiqbolalarini ochadi.
Madaniy nuqtayi nazardan, gumanitar almashinuvlar faollashgani, madaniyat kunlarining o'tkazilishi xalqlar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikni mustahkamlamoqda. Bu, ayniqsa, madaniy diplomatiya tinchlik uchun kuchli vositaga aylanib borayotgan global beqarorlik sharoitida muhim ahamiyatga ega.
Ishonch bilan aytishim mumkinki, O'zbekiston - Turkmaniston munosabatlarning rivojlanishi nafaqat ikki tomonlama yutuq, balki mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik arxitekturasiga qo'shilgan hissidir. Pokiston ekspertlar hamjamiyati bu kabi sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi va Markaziy Osiyo kelajagi birdamlik, pragmatizm va ochiqlikda, deb hisoblaydi.

"Dunyoy" AA.

HOKIM: MEN KUNNI GAZETA O'QISHDAN BOSHLAYMAN

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari bilan jurnalistlarga o'z faoliyatlarini erkin amalga oshirishlari uchun barcha shart-sharoit yaratib berilyapti. Ular jamiyatimizda uchrab turadigan muammolarni dadil ko'tarib chiqishga rag'batlantirilmoqda. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, bugungi kunda jamiyatimizda ochiqlik va oshkorlikni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o'rganish hamda hal qilish borasida ommaviy axborot vositalari xodimlarining o'rni va ta'siri tobora ortib boryapti.

soha mutaxassislari bo'lishi jarayonida, bosma nashrlarni tayyorlash barobaridan umuman bexabardir. Albatta, bunga birinchi navbatda, tuman-shaharlarda professional jurnalist kadrlar yetishmasligi sabab bo'lmoqda. Bu boradagi muammoning yana bir asosiy ildizi tahririyatlarining kafolati maoshning yo'qligi va borida ham juda kamligidir.

Dolzarb mavzu

Shu jihatdan hokimlarning hudud rahbari, hukumatning ishonang vakili sifatida xalq bilan muloqot qilishi, bunda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanishi bugungi davr talabidir. Binobarin, odamlar biror muammoga duch kelsa, unga yechim izlab avvalo gazetaga murojaat qiladi. Mutasaddilarni shunga munosabat bildirishiga majbur etadigan, vidonini uyg'otadigan vosita, bu - matbuot!

Shu o'rinda barcha jurnalistlarga ma'lum bo'lgan bir fakti aytib o'tish kerak - o'z ish kunini gazeta o'qishdan boshlashga odatlanagan Erkinjon Turdimov hokim bo'lib borgan joyda doim matbuot rivojlangan. Navoiy viloyatida ishlagan chog'larida ham hududlardagi kamchiliklarni, odamlarni qiynab kelayotgan muammolarni gazetadan bilgan. Shuningdek, Surxondaryo va Samarqandda hokimlik paytlarida ham hatto viloyat, tuman gazetalarning obunasi sezilar darajada ko'tarilgan. Sharoiti hamingiqadar binolarda ishlab yurgan jurnalistlarga "Matbuot uyi" qurib bergani uchun haligacha rahmatnomalar yog'ildi.

Shu bois Erkinjon Turdimov Sirdaryo viloyatiga hokim etib tayinlanganida, eng avvalo, mahalliy jurnalist xursand bo'lishdi. Va bu ko'p o'tmay o'zini oqladi. Viloyatdagi tuman-shahar gazetalarining aksariyati moliyaviy muammo tufayli nashr etilmayotgandi. Joriy yilda bunga chek qo'yilmoqda: "Nurli istiqbol", "Yangiyer hayoti", "Xovos ovozi", "Yangi Mirzaobod" va boshqa faoliyati to'xtab qolgan gazetalar yana chop etila boshlandi. Bunda, albatta, yangi rahbarning ilk kuzatish qo'ldagi ommaviy axborot vositalari, xususan, bosma nashrlarga bo'lgan katta e'tibori asosiy omil bo'ldi. Natijada tahririyatlarda faoliyatni tiklash uchun oz bo'lsa-da, moliyaviy imkoniyat

Qovun qovundan rang oladi

O'z boshpanasiga ega bo'lmagan gazetarlar ro'yxati qatorida Buxoro viloyati hokimligi muassisligida chop etilayotgan "Buxoronoma"ni ham kiritish mumkin. 1920-yilda "Qutulish" nomi ostida dunyo yuzini ko'rgan, 105-yil davomida nomi bir necha bor o'zgaragan gazeta taassufki, haligacha tuzukroq bir binoga yolg'ingan emas. Vaholanki, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauq Fitrat, Qori Yo'ldosh Po'latov singari ma'rifatparvar jadid bobolarimiz viloyatning otaxon gazetasi sifatida el og'ziga tushgan va nashr poydevorini qo'yishgan. Elimizning ardoqli farzandi Abdulhamid Sulaymonov, ya'ni Cho'lpon bu gazetaga bir muddat bosh muharrirlik ham qilgan. Gazeta xalqimiz uchun oshkorlik minbariga, ma'naviyat uchun ko'zguisiga aylangan. Bu dargohdan oldimiy kishilardan tortib, iste'dodli yoshlar, olimiy ziyolilarning qadami uzilgan. Bugun esa gazeta tahririyati ahvoliga havas qilib bo'lmaydi. Joriy yilning 24-aprelda gazetamizda chop etilgan Oliy Majlis Senati a'zosi Abdusaid Ko'chimovning "Avliyador diyori, aqlar yurti - Buxoro" maqolalarida ham viloyatning otaxon gazetasi hisoblangan "Buxoronoma", bor-yo'g'i 1000 nusxa atrofiga chop etilayotgani, "Kogon hayoti"ning adadi 200 ta... Mahalliy amaldorlar ichida "Bizga gazeta-jurnallarning keragi yo'q" deyidiganlar ko'payib borayotgan tanqid qildi. Darhaqiqat, keyingi ikki-uch yil "Buxoronoma" va "Buxarskiye vestnik" uchun og'ir kechayapti. "Buxoronoma" adadi yaqinda arang ming nusxaga yetdi. "Buxarskiye vestnik"da ahvol yanada mushkul. Viloyatda ikki milliondan ziyod aholi yashayotgani inobatga olinib, shunday gazetalar borligidan xabaridorlardan ko'ra xabarizlar o'n, yuz hissa ko'p, deya achchiq o'ylash mumkin.

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi

Abdulla Qahhoridan bir vaqtlar bir katta amaldor "Meni ham yozing bir maqtab", deb so'raganida, Abdulla Qahhor unga "Siz xo'rozzqand emissiya... Asarlaringizni o'zi himoya qiladi", degan ekan. Jurnalist haqiqatni yozishi kerak, bo'layotgan ishlarni yolg'ondan maqtasak, hech kim ishonmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'zlar ham har bir chiqishlarida yuqori minbarlardan turib, barcha sohadagi kamchiliklarni ochiq tanqid qilmoqda, matbuotni ham bunga chorlayapti. Viloyat rahbarlari ham mavjud kamchiliklarni joylarga chiqib, aholining o'zidan ochiq eshitishiga undamoqda. Hozirgi kunda matbuotning dadillashi, o'z nufuzini saqlab qolishi ziyoli hokimlar ma'naviyat jonkuyarlariga bog'liq. Ommaviy axborot vositalari shunchaki bir oddiy sohama! Gazeta yo'qilb ketsa, xalqning manfaatini kim o'ylaydi?

"Xalq so'zi" gazetasida bu borada ko'p chiqish qilingan bo'lsa-da, O'zbekiston jurnalistlar uyushmasi a'zosi Muhammad Ali Ahmadning "Hurriyat" gazetasi joriy yil 23-aprel sonida e'lon qilingan "Sirdaryoda gazetalar e'tibor kuchaymoqda, lekin..." sarlavhali maqolalarida ham tuman-shahar gazetalarining aksariyatiga muassislari, ya'ni hokimliklarning matbuot kotiblarini bosh muharrirlik qilayotgani tilga olingan. Holbuki, ushbu vazifada ishlayotganlarning deyarli barchasi boshqa

Qovun qovundan rang oladi

Tahririyatning iqtisodiy ahvoli tang. Buyuqda ijara pulini to'lash masalasi bor. Maosh miqdorini esa aytgani til bormaydi. Shu bois ko'plab jurnalistlar moyanasi durustroq ishlarni etadigan tutib ketishdi. Yosh qalamkashlar esa gazetachilik mashaqqatidan cho'chibmi yoki yoshi ulug'roq hamkasblarining ahvolini ko'ribmi, tahririyatga ishlagini o'zlarida jur'at topishmayapti. Bir paytlar Buxoro jurnalistika maktabi desa, ziyolilar ko'z o'ngida "Buxoronoma" (avvalgi "Buxoro haqiqati") gavdalanadigan, hayot qaynab turgan go'shadga sukunat hukmron.
Sirasini aytganda, tuman gazetalarining ahvoli bundan-da battar. Buxoro tumani hokimligi muassis sanalgan "Galaosiy ovozi" chop etilmayotganiga ikki yilcha bo'ldi. Peshku, G'ijduvon tumani gazetalariga ham shunga o'xshash gapni aytilish mumkin. Ayrimlari muharrirlik sa'y-harakati bilan oyda bir bor chop etilyapti. Masalan, Qorako'l tumani gazetasi oyiga bir marta 502 nusxada o'quvchilarga qo'lga yetmoqda. 170 ming aholisi bo'lgan tuman uchun bu ko'pmi yoki kam? Bu savolga tuman mas'ullari javob izlab ko'rishar. Darvoqe, gazetarlar ahvoli shu ekan, muassislari-chi, ular nega ma'naviyat, ma'rifat ko'zguisi vazifasini o'taydigan o'z nashrlariga shu qadar e'tiborsiz?
- Tahririyatimiz uchun bino quriladigan bo'ldi, ko'p yillik orzumiz ushalyapti, deya suyuandik, - deydi bir muharrir. - Ammo hokimimiz viloyat gazetasi binosiz ekanidan xabar topib, to'nini teskari kiydil. "Viloyatda qilinmagan ishni qilsak, qanday bo'larkin?" deb cho'chidi chog'i ortga chekindi. O'rinni gap. Yon-atrofga qarasangiz, "Falonchi pora olibdi, pismadonchi o'qituvchiga qo'l ko'taribdi" qabilidagi gap-so'zlar quloqqa tez-tez chalinadi. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatchilikni-ku aytmay qo'ya qolaylik. Bularning barchasi gazeta-jurnal, kitob mutolaasidan uzoqlashib ketilgani oqibati emasmi? Ma'naviyat, ma'rifatsizlik qo'lbargalarga oid misollardan esa istalgancha keltirish mumkin.
- Ko'plab o'g'il-qizlar ijtimoiy tarmoqlarga ispisiz bog'lanib qolmoqda, - deydi g'ijduvonlik pedagog Nasiba Rustamova. - Intermetan od bi bilimlarini oshiradigan ma'lumotlarni olinsa, bunga aslo qarshilimiz yo'q. Ammo aksariyat yoshlar kishining ma'naviy dunyoqarashini buzadigan, axloqsizlikni targ'ib etadigan,

Tanganing ikkinchi tomoni...

Hozirgi kunda matbuotda ko'tarib chiqilayotgan biron tanqid masalaga mas'ullarning javob yoki munosabat bildirgisi kelmaydi. Ayrim rahbarlar o'z faoliyati matbuotda tanqid qilinsa ham qilt etmaydigan darajada beti qattiqlashib ketgan. Yo'ki bunga matbuotimiz so'zining ta'siri pasayib ketayotgani sababmikan? Har yili jurnalist tayyorlaydigan oliy dargohlar yoki maktablardan qancha jurnalist kadrlar yetishib chiqadi. Nega ularning hech biri tuman-shahar tugul, viloyat gazetasi yoki bironi sifatida ham ko'rinish bermayapti? Bularning taqdiri kimmidir o'ylantiradimi? Bu borada yana bir muammo borki, yosh jurnalistlarning aksariyati bosma OAVda ishlashga tayyor emas. Vaholanki, bosma ommaviy axborot vositalarida ishlash, tahrirdan, tahlidan va albatta, so'z san'atidan hamda ustozlardan amaliy saboq olgan borki, barcha ommaviy axborot vositalarida mahorat bilan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Taklif shuki, jurnalistikada o'qiyotgan yoshlar amaliyot uchun ko'proq bosma OAVga yo'llansa, albatta, ular kelajakda har jihatdan yetuk jurnalist bo'lib yetishadi. Jurnalist kadrlar yetishmovchiligi kuzatilayotgan hududlar uchun alohida kvotalar asosida talabalar qabul qilinsa, ular o'qishni bitirgach ma'lum muddat aynan, o'sha tuman-shaharlarda bosma OAVda ishlashi joriy etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Biz dadil, o'ktam, yurt va millat egasi bo'lgan jurnalistikamizning kelajagini o'ylaymiz, matbuotimiz nufuzini qaytarish tarafdorimiz. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat "to'rtinchi hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda".

"Xalq so'zi".

MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY USHLUBLARI

Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida malakali kadrlar yetishib chiqib, ular bugungi kunda turli yo'nalishlarda faol mehnat qilishyapti. Shu ma'noda, ayni paytdagi zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayoni tobora takomillashayotgan davrga mengash mumkin. Zero, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining jadallashuvi ham ana shu - malakali kadrlar masalasiga bevosita bog'liq.

Nuqtai nazar

Albatta, bunday mas'uliyatli vazifalar ijrosida oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki har qachongidan-da muhim. Shu bois mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini faoliyatini takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratilayotgani e'tiborga molik.
Ta'kidlash joziki, bugungi kungacha kelib nafaqat davlat, balki nodavlat ta'lim muassasalarini faoliyatiga ham keng yo'l ochilidiki, bu yoshlar uchun yo'nalishlar tanlash imkoniyatini yanada kengaytirish, ta'lim qamrovini oshirish bilan birga sog'lom raqobatni ham kuchaytiradi.

Yana bir muhim jihati, bu - nazariya bilan amaliyot uyg'unligi. Har qanday oliy ta'lim dargohi mana shu tamoyil asosida ishlamasda rivojlanish bo'lmaydi, kutilgan natijaga erishilmaydi. Davlatimiz tomonidan ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilayotgani, bu borada aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirilayotgani ham bejiz emas.
Hozirgi kunda universitetlar talabalarini ayrim ta'lim yo'nalishlarida ikkinchi kursdanox korxonalar, ta'lim muassasalari, tadbirkorlik subyektlariga brikirib qo'yish tajribasi yo'lga qo'yilgan. Amalda bugungi talaba o'zining bo'lajak ish joyi bilan tanishmoqda. Bu esa ularga o'qishni tamomlaganidan so'ng o'sha joyda ishlash imkoniyati yaratildi degani.
Darsdan ajralmagan holda yo'lga qo'yilgan amaliyot davomida talabalar o'z sohasining

Masofaviy ta'lim zarurati va mas'uliyati

Prezidentning "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish va davlat granti ajratish mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlarning sifatli ta'lim olishlari uchun mavjud shart-sharoitlarni yaxshilash, kadrlar tayyorlashni iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoq hamda sohalarga manzilli yo'naltirishda muhim dasturlamal bo'lmoqda. Mazkur hujjatda abituriyentlarning xorijiy tillarni bilishiga ham alohida e'tibor qaratilgani diqqatga sazovor.
Malakali kadrlar tayyorlashning muhim bo'g'ini magistratlar tayyorlash hisoblanadi. Albatta, ushbu jarayon uchun zarur, ya'ni kafedralarga yetakchilik muassasalar, olimlar tanlov asosida ishga taklif qilinmoqda. Magistratura uchun kerak bo'lgan uslubiy qo'llanmalar, o'qitiladigan fanlar bo'yicha darsliklar

Samaradorlikni ta'minlashda integratsiyang o'rni

Masofaviy ta'lim dars jarayonida kompyuterlashtirishni yanada takomillashtirish vazifasini oldimgiza qo'ydi. Demak, buning uchun o'quv xonalari, professor-o'qituvchilarning talabalar bilan muloqot qilishi, axborot uzatishi uchun mo'ljallangan zamonaviy o'quv texnikasi bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.
Aytish joziki, ma'ruzalar o'qish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va o'quv jarayonida zamonaviy kompyuterlardan samarali foydalanish zarur. Mashg'ulotlarning yuqori saviyada o'tkazilishi uchun universitet axborot-resurs markazlari zamonaviy texnik o'quv vositalari, darslik hamda o'quv qo'llanmalarining so'nggi avlodi bilan jihozlangani nihoyatda muhim. Asosiy fanlar bo'yicha mutaxassisliklarga oid o'quv-metodik materiallar, ma'rufa matnlarning elektron bazasini shakllantirish ham bugungi kun talabidir.
Shuningdek, asosiy e'tibor talabalarning individual mustaqil ishlariga qaratilgan bo'lishi

Ishbilarmonlik "o'yini"ning afzalligi nimada?

Kompyuterda o'qitilayotgan fanlarga oid analitik muammolarni hal qilish jarayonida ayrim jihatlarga e'tibor qaratish kerak, deb hisoblaymiz.
Jumladan, amaliy ish jarayonida zamonaviy AKTni qo'llashni puxta o'zlashtirish lozim. Qolaversa, kompyuterda analitik tahlini yo'lga qo'yish, ish davomida raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanishning asosiy nazariy jihatlari, modellarini yaratishga e'tibor berish zarur. Kadrlar tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni, ya'ni talabanning diversifikatsiyalash imkonini ham beradi.
Hozirgi vaqtda oliy ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili, innovatsion axborotlar majmuasini yaratish hamda ularni o'qitilayotgan fanlar mazmuni va amaliyotga izchil integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mutaxassislar tayyorlashga bunday yondashuv, oliy ta'lim tizimiga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni kun tartibiga qo'yadi.
Shuningdek, o'quv jarayonini to'liq kompyuterlashtirish bo'lajak bakalavrlarni nafaqat axborotni qayta ishlash tizimlarining malakali mijozlari, balki ijtimoiy-iqtisodiy mazmunda muammoni o'tkazilishi uchun ishlab ma'lumotlarni qayta ishlash uchun turli dasturiy vositalardan samarali foydalanishga qodir foydalanuvchilari sifatida o'qitishni talab qiladi.

Umuman, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarining ijodiy, ilmiy faolligi, zamonaviy texnologiyalardan xabaridorlik kelajakda malakali mutaxassis bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa oliy ta'lim muassasalarida barcha qulaylik va shart-sharoit yaratilgan.

Abdusalom UMAROV, Toshkent amaliy fanlar universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor.

